

RAQAMLI IQTISODIYOTDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY-IQTISODIY MOHIYATI

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Real iqtisodiyot kafedrasi professori,
i.f.d. Kuvandikov Shukhrat Oblokulovich
MI -121 guruh magistranti
Mirzaxadjayeva Shaxzoda Shuxratovna*

Raqamli iqtisodiyot – bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog'liq iqtisodiy faoliyat, hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig'indisidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi.¹

Birinchi marta 1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte “Raqamli iqtisodiyot” terminini amaliyotga kiritgan bo'lsa, hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo'llamoqda.² "Raqamli iqtisodiyot" tushunchasi nisbatan yangi va juda muhim hodisadir. Raqamli iqtisodiyotning ko'plab ta'riflari mavjud bo'lib, quyida ulardan ayrimlarini keltirdik:

Raqamli iqtisodiyot – raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar tizimi. Raqamli iqtisodiyot internet orqali, elektron tijorat orqali tovarlar va xizmatlar savdosiga imkon beradi va uni amalga oshiradi. Raqamli iqtisodiyot uchta tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: infratuzilma (qurilmalar, dasturiy ta'minot, telekommunikatsiya va boshqalar), elektron biznes (raqamli jarayonlar, tashkilotlarda) va elektron tijorat (tovarlarni onlayn sotish) .³

Raqamli iqtisodiyot – bu xo'jalik faoliyati, bunda ishlab chiqarishning asosiy omili raqamli ma'lumotlarni ishlab chiqarish, katta hajmlarni qayta ishlash va tahlil natijalaridan foydalanish bo'lib, ular an'anaviy boshqaruv shakllariga nisbatan har xil

¹ Xaydarov B. X., Saitov S. A. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari amaliy ahamiyati va xorijiy tajriba //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 5. – S. 151-156.

² Yo'ldoshmaxmudov S. et al. DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT PROSPECTS //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 8. – S. 951-955.

³ Rakhimov Z. O. The importance of the development of the digital economy in the field of tourism in Uzbekistan //Builders of the future. – 2022. – T. 2. – №. 02. – S. 221-227.

turdagi mahsulotlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, saqlash, sotish, etkazib berish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.⁴

Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotdir, ammo ko‘p jihatdan raqamli iqtisodiyot Internet va Butunjahon internet tarmoqlariga asoslangan bozorlarda biznes operatsiyalarini amalga oshirishini tushunamiz. Raqamli iqtisodiyot ko‘plab afzalliklarga ega. Bu to‘lovlarning narxini pasaytiradi va yangi daromad manbalarini ochadi. Onlayn bozorda, an’anaviy iqtisodiyotga nisbatan xizmatlar narxi pastroq (birinchi navbatda reklama xarajatlari kamayishi bilan bog‘liq). Bundan tashqari, raqamli dunyoda tovarlar va xizmatlar tezda global bozorga chiqishi va dunyoning istalgan burchagidagi odamlar uchun ochiq bo‘lishi mumkin. Taklif qilinayotgan mahsulot iste’molchilarning yangi umidlar yoki ehtiyojlarini qondirish uchun deyarli darhol o‘zgartirilishi mumkin. Raqamli iqtisodiyot yanada xilma-xil axborot, ta’lim, ilmiy, ko‘ngilochar tarkibni ta’minlaydi - tezroq, sifatliroq va qulayroq. Zamonaviy taraqqiyotning keyingi istiqbolida katta hajmli ma’lumotlar bilan ishlash texnologiyalari (Big Data), sun‘iy intellekt, neyrotexnologiyalar, kvant texnologiyalari, buyumlar interneti, robototexnika va sensorika, raqamli elektron platformalar, bulutli va mobil texnologiyalar, virtual va qo‘shimcha reallik texnologiyalari, kraudsorsing, blokcheyn texnologiyalari, kriptovalyutalar va ICO, 3D-texnologiyalari singari raqamli texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli iqtisodiyot hozirgi mavjud sohalarning yarmidan ko‘prog‘ida beqiyos o‘zgarishlar keltirib chiqarishi ta’kidlanmoqda.

Bundan xulosa qilish mumkinki raqamli iqtisodiyot, bu - alohida faoliyat turi emas. Aslini olib qaraganda tadbirkorlik, ishbilarmonlik, sanoat ob’ektlari, xizmatlar deganidir. “Raqamli” atamasi mazkur sohalarning barchasida innovatsion axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar an’anaviy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosi resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma’lumotlar bo‘ladi. Ularning tahlilidan so‘ng to‘g‘ri boshqarish bo‘yicha yechim ishlab chiqiladi.

«Raqamlashtirish» so‘zi aslida yangi atama bo‘lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o‘laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo‘lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo‘llashni ko‘zda tutadi.⁵

Shuningdek raqamli iqtisodiyot – bu noldan boshlab yaratilishi lozim bo‘lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes

⁴ Savriyevich Q. S. KIBERXAVFSILIK-RAQAMLI IQTISODIYOTNING MUHIM SHARTI //Proceedings of International Educators Conference. – 2023. – T. 2. – №. 1. – S. 159-163.

⁵ Rustam o‘g‘li E. F. RAQAMLI IQTISODIYOTIDA RESPUBLIKA BANK TIZIMINI FAOLIYATINI NAZORAT QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 28. – №. 1. – S. 41-48.

modellari yaratish, ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir.⁶

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda raqamli iqtisodiyot quyidagilarda namoyon bo'lishini aniqladik:

Bu yangi kadrlar va yangi ish joylari hosil bo'lishida;

Bu yangi korporativ madaniyat barpo bo'lishida;

Bu yangi boshqaruv va nazorat usullarining yuzaga kelishida;

→ Bu katta ma'lumotlar bazalari (big data) va aniqlikka erishishda;

→ Bu sun'iy intellekt va intellektual boshqaruv tizimlarining hosil bo'lishida;

→ Bu ta'lim, ishlab chiqarish va boshqaruvdagi virtualizatsiya jarayonlari amalga oshirishida;

→ Bu buyumlar interneti va masofaviy ta'lim (MOOC) ning keng miqyosda qo'llanilishida;

→ Bu blokcheyn va u orqali yuritiladigan turli-tuman jarayonlarning hayotga tadbiq qilinishida;

→ Bu mayning jarayoni hamda mustaqil biznes yuritish imkoniyatining yuzaga chiqishida;

→ Bu yangi pul-kredit tizimi va banklar faoliyatining kengayishida;

→ Bu katta investitsiyalar jalb qilish imkonini beradigan ICO (Initial Coin Offering) jarayoning amalga oshirilishida;

→ Bu mustaqil pul birligi va kriptovalyutalarning amaliyotga kirib kelishida;

→ Bu elektron tijorat va elektron biznesning rivojlanishida va boshqa juda katta imkoniyatlar yuzaga kelishidadir.

Xizmat ko'rsatish sohasida raqamli iqtisodiyotni qo'llashning qulayliklari quyidagicha:

1. Turistik xizmatlar sotib olish uchun xarajatlar kamayadi (masalan, oldindan mehmonxonani bronlash, aviabilet).

2. Turistik xizmatlar (Turpaketlar) haqida ko'proq va tezroq ma'lumot olinadi.

3. Raqamli dunyodagi turistik xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta bo'ladi.

4. Fidbek (turistlar fikrini)ni tez olish hisobiga turmarshrutlar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi.

5. Xizmat ko'rsatish tezroq, sifatliroq, qulayroq bo'ladi.

Yuqorida ko'rib o'tilganlardan xulosa qiladigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyot bu - gibril iqtisodiyotdir. Bu axborot-kommunikatsiya va moliya texnologiyalarining rivojlanganligi, shuningdek, birgalikda gibril turizm va xizmat ko'rsatishdagi barcha

⁶ Toxirovna H. S. O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNESNINGRIVOJLANISHI //Scientific Impulse. – 2023. – T. 1. – №. 6. – S. 1446-1452.

iqtisodiy faoliyat sub'ektlari – tovarlar va xizmatlar yaratish, taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol qilish jarayoni ob'ektlari, sub'ektlarining to'laqonli o'zaro aloqa qilish imkoniyatini ta'minlaydigan infratuzilma ochiqligi tufayli mavjud bo'lishi mumkin.

Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manba – trakzaksion sektorning o'sishidir. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich YaIMning 70 foizdan ortiq miqdorni tashkil etib, davlat boshqaruvi, konsalting va informatsion xizmat ko'rsatish, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, xizmatlar sohasini (kommunal, shaxsiy va ijtimoiy) birlashtiradi.⁷

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga doir olib borilayotgan islohatlar natijasida mamlakatda raqamli iqtisodiyot darajasi oshib bormoqda. Lekin sohada hozirgi kunda ham ba'zi muammo va kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Bu muammo kamchiliklarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

– iqtisodiyot tarmoq va sohasining raqamlashtirish yuqori darajada emasligi ya'ni raqamli texnologiyalar bilan ta'minlanmaganligi;

– sohada yuksak malakaga ega, bilim va tajribali mutaxasislarning soni yetarli darajada emasligi;

– sohadagi ishlar haqiqiy ahvolining tahlili markazlashgan ma'lumotlar tizimiga integratsiyani ta'minlaydigan yagona axborot-texnologik platformaning mavjud emasligi natijasida joriy etilayotgan dasturiy hujjatlar tarqoq ekanligi;

– raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining yaqin hamkorlikda ishlar olib bormayotganligi;

– OTM larda iqtisodiyot yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalarning soha bo'yicha kompyuter dasturlarini doir bilimlari past darajada ekanligi yoki bu kompyuter dasturlar bo'yicha OTM larda ta'lim berilmayotganligi;

– internet tezligining hamda sifatining yuqori darajada emasligi;

– maktablarda kompyuter texnologiyalaridan foydanish va o'rganish uchun kompyuter texnologiyalar soning yetishmasligi. Yoshlarga bolalikdan axborot texnologiyalari bilan tanishtirib borish asosida kelajakda sohada yetuk mutaxasislarni yetishtirib chiqarish mumkin;

– barcha sohalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi yuqori darajada emasligi.

Raqamli iqtisodiyotning eng faol drayveri – bu davlatdir. U raqamli iqtisodiyotning asosiy buyurtmachisi va iste'molchisidir. Masalan, Xitoy bu maqsadlar uchun 9 mlrd dollar atrofida mablag' sarflagan. Bozor kapitalizatsiyasi 210 mlrd dollardan ziyod

⁷ O'G'LI O. Q. A. INNOVATSION LOYIHALARNING RAQAMALASHTIRISH VA QIYMATINI BAHOLASH XUSUSIYATLARI //Innovation: The journal of Social Sciences and Researches. – 2023. – T. 1. – №. 6. – S. 160-164.

bo'lgan Alibaba internet resursi ushbu sarmoyalarning to'g'ri yo'naltirilganini isbotladi⁸.

Raqamlashtirishdan maksimal foyda olishni istagan davlat, zaruriy yuqori texnologik maxsulotlarning bozorini yaratishi va uni qo'llab-quvvatlashi lozimdir. Shu bilan birga, parallel tarzda davlat boshqaruvi, muhim sohalar va korxonalar uchun xususiy ilovalarni rivojlantirgan holda, elektron iqtisodiyotning asosiy platformalarini nazorat qiluvchi instrumentlarni o'z izmida saqlab qolish ham muhim hisoblanadi.⁹

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mardiyevna, S. G., & Farxodovna, M. R. (2023). Small Service Business Trends. *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science*, 2(5), 123-130.
2. Mardiyevna, S. G., & Ugli, Y. S. N. (2023). Development of Entrepreneurship Organizing Enterprise Activity Through. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 564-571.
3. Mardiyevna, S. G., & Panjiyevich, K. S. (2023). Economic Fundamentals of the Development of Services. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 600-607.
4. Shadiyeva, G., & Isoqulov, Z. (2023). NARPAY TUMANIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AHOLI XOHISH ISTAKLARI. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(3), 169-179.
5. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҚАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
6. Shadieva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). THEORETICAL VIEWS ON CONCEPTS OF ENTREPRENEURSHIP. *Journal of new century innovations*, 20(3), 42-45.
7. Shadieva, G. M., & Urozaliev, E. (2022). THE ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DIGITALIZATION OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 963-971.
8. Shadieva, G. M., & Urozaliev, E. (2022). THE ESSENCE AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE DIGITALIZATION OF THE ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 963-971.
9. Shadieva, G. M., & o'g'li Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 957-962.
10. Shadieva, G. M., & Kulmuradova, R. (2022). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN IMPROVING THE STANDARD OF LIVING AND ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION. *British View*, 7(4).
11. Nodirovna, M. S. (2023). Developing Rural Services and Increasing the Living Standards of the Population in the Republic of Uzbekistan. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 653-661.

⁸ Isomiddin o'g'li S. S. RAQAMLI IQTISODIYOT BUGUNGI KUNDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 18. – №. 1. – S. 243-248.

⁹ Qaxramon o'g'li R. B. RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI //E Conference Zone. – 2022. – S. 215-220.

12. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
13. Abdukhalilovich, S. S., & Ugly, S. F. S. (2023). THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF POVERTY. *Journal of new century innovations*, 27(1), 97-100.
14. Abdukhalilovich, S. S., & Ugly, S. F. S. (2023). THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF POVERTY. *Journal of new century innovations*, 27(1), 97-100.
15. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
16. Шадиева, Г. М. (2023). ОИЛА ХЎЖАЛИГИНИНГ ИҚТИСОДИЙ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЙЎЛЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 21(1), 91-94.
17. Mardievna, S. G., & Shukhatovna, M. S. (2021). Ways to increase investment potential in samarkand region. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(11), 44-50.
18. Шадиева, Г. (2021). Оила тадбиркорлигини ривожлантиришда инновацияларнинг айрим назарий жиҳатлари. *Экономика и образование*, (1), 121-126.
- амаюнус, П., & Мардиевна, Қ. Ш. Г. (2021). Маркетинг фаолиятида қўлланиладиган ахборотлар тизими ва уларнинг таснифи. *Development Issues Of Innovative Economy In The Agricultural Sector*, 278.
20. Shadieva, G. M., & Akbarovna, K. S. (2023). THEORETICAL VIEWS ON CONCEPTS OF ENTREPRENEURSHIP. *Journal of new century innovations*, 20(3), 42-45.
21. Shadiyeva, G., & Kholmiraeva, G. (2022). FAMILY BUSINESS AND ITS DEVELOPMENT. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 148-151.
22. Shadieva, G., & Saidmurodov, F. (2022). DEVELOPMENT OF NATIONAL TOURISM AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF ITS COMPETITIVENESS. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(8), 115-124.
23. Шадиева, Г. М., & Кувандиков, Ш. О. (2022). РОЛЬ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ СТРАНЫ. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 59-63.
24. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions*, 712-721.
25. Пардаев, М. Қ., & Шодиева, Г. М. (2001). Оила хўжалиги иқтисодиёти ва тадбиркорлиги. Самарқанд, СамКИ, 151.
26. Shadieva, G. M. (2022). SOCIO-ECONOMIC CONCEPT OF" FAMILY ECONOMY". *Confrencea*, 1(1), 239-243.
27. Шадиева, Г. М., & Садинова, Б. Б. (2022). Мамлакатимизда тадбиркорликни ривожлантириш йўллари.

28. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). SYNERGETICS AND ITS ROLE IN SOLVING PROBLEMS OF FAMILY BUSINESS. *British View*, 8(1).
29. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
30. Шадиева, Г., & Шакирова, Ф. (2021). ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШГА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШУВИДА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛКНИ РАСМИЙЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ. *Экономика и образование*, (5), 381-384.
31. Mardievna, S. G., & Zhamshedovich, K. Z. (2023). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE INDUSTRY. *Thematics Journal of Commerce and Management*, 7(1).
32. Шадиева, Г. М. (2022). ОИЛА ХЎЖАЛИГИ ФАРОВОНЛИГИНИ ОШИРИШДА ОИЛАВИЙ БИЗНЕСНИНГ РОЛИ. *Архив научных исследований*, 2(1).
33. Shadiyeva, G. M., & Kulmuradova, R. (2022). THE ROLE OF FAMILY BUSINESS IN IMPROVING THE STANDARD OF LIVING AND ENSURING THE WELL-BEING OF THE POPULATION. *British View*, 7(4).
34. Шадиева, Г. (2021). Оила тадбиркорлигини ривожлантиришда инновацияларнинг айрим назарий жиҳатлари. *Экономика и образование*, (1), 121-126.
35. Shadiyeva, G. M., & o'g'li Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 957-962.
36. Mardiyevna, S. G., & Ugli, A. U. A. (2023). PROVIDING EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN RURAL AREAS IN THE DIGITAL ECONOMY. *Research Focus*, 2(1), 7-10.
37. Pardaeva, O. M., & Shodieva, G. M. (2020). The role of family entrepreneurs in society development. *American Journal of Economics and Business Management*, 3(5), 194-200.
38. Шадиева, Г. (2021). ОИЛА ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *Экономика и образование*, (1), 121-126.
39. Shadiyeva, G., & Isoqulov, Z. (2023). NARPAY TUMANIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA AHOLI XOHISH ISTAKLARI. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 3(3), 169-179.
40. Мамаюнус, П., & Мардиевна, Қ. Ш. Г. (2021). Маркетинг фаолиятида қўлланиладиган ахборотлар тизими ва уларнинг таснифи. *Development Issues Of Innovative Economy In The Agricultural Sector*, 278.